

ANTONIMLARNING LISONIY XUSUSIYATLARI

M.J. Qarshieva

AIFU magistranti

Annatatsiya. Ushbu tezisda oksimoron birikmalarida antonimlarning ifodalananish xususiyatlari ya'ni, o'zaro qarama-qarshi manoga ega bo'lgan so'zlarning birikib, o'zgacha yangi badiiy mazmun hosil qilishi, shu bilan birga antonim va oksimoronlarning badiiy matnlardagi vazifalarini, ularning ma'no ifodalay olish darajasini ilmiy hamda nazariy jihatdan tahlil qilishga bag'ishlanadi. Oksimoronnning stilistik ma'no jihatlari, adabiy asarlarda qo'llanilishi va aynan antonimlar orqali hosil qilingan badiiy obrazlarga ham e'tibor beriladi.

Kalit so'zlar: Oksimoron, antonimya, badiiy ifoda, semantik ziddiyat.

Abstract. This article delves into the characteristics of antonyms within oxymoronic expressions—specifically, how words with opposing meanings combine to create novel artistic content. It examines the roles of antonyms and oxymorons in literary texts, analyzing their capacity to convey meaning from both scientific and theoretical perspectives.

Key words. Oxymoron, antonymy, stylistic meaning, semantic contradiction.

Аннотация. В данной статье рассматриваются особенности использования антонимов в оксюморонных выражениях то есть, как слова с противоположными значениями объединяются для создания нового художественного содержания. Анализируются функции антонимов и оксюморонов в литературных текстах, их способность передавать смысл с научной и теоретической точек зрения.

Ключевые слова. Оксюморон, антонимия, стилистическое значение, семантическое противоречие.

Til – bu insonning ichki kechinmalarini, xohish, istaklarini va hissiyotlarini ifodalovchi asosiy vositadir. Til qanchalar leksik jihatdan boy b'lsa, u adabiy til foydalanuvchilari uchun shuncha keng imkoniyatlar yaratadi. Muallifning iqtidoriga ko'ra, badiiy asar kitobxon diqqatini jalb etishi, obrazlarni jonli va ta'sirchan

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

tasvirlashi hamda chuqur ma’no ifodalay olishi mumkin. Asarning ma’naviy himmatini oshiruvchi vositalardan biri bu oksimoron va antonimlardir. Bugungi kunda antonimlarning oksimoronda samarali usulda foydalana olish hamda adabiyotlarda foydalanilgan va foydalanib kelinayotgan oksimoronlarning tag ma’nolarini o’quvchiga tushunarli hamda oson tarzda yetkazib bera olsh masalasi dolzarb masalalardan biri bo’lib kelmoqda. Shu bilan bir qatorda oksimoronlar nafaqat stilistik vosita sfatida, balki, tilning semantik imkoniyatlarini chuqurroq anglash, badiiy ifoda vositalarini kengaytirish va asarning emotsiyonal ta’sirchanligini oshirishiruvchi vositadir. Nazariy jihatdan olib qarasak, antonim va oksimoron ikkisi ham o’zaro zid ma’noli so’zlarning birikuvidan hosil bo’luvchi stilistik vositalar bo’lishi mumkin, lekin ular adabiy matnlarga turlicha ma’no va mazmun bag’ishlaydi. Oksimoron - qahramonning qarama-qarshi his tuyg’ularini yoki asardagi murakkab holatlarni o’quvchiga tushunarli tarzda yetkazishda samarali usullardan biri bo’lsa, antonim esa qarama-qarshi manoli so’zlarni ifodalash orqali voqelikdagi zidliklarni ko’satish vositasi sifatida alohida ajralib turadi. Bundan ko’rish mumkunki, antonim faqatgina bir-birini inkor etuvchi so’zlar juftligidir. Ular ishtirokida asarda yangi ma’no yaratib bo’lmaydi, faqatgina solishtirma ta’sirni aks ettirish mumkin.¹ Masalan, uzun va qisqa, baland va past. Ammo, oksimoron antonimdan farqli o’laroq, o’zida zid ma’noli paradoksal so’zlarni birlashtirib, jumлага mazmun va tasviriy ifoda baxsh etadi. Buni esa *shafqatsiz mehribonlik* yoki *qulogni qomatga keltiruvchi sokinlik* kabi misollar orqali oksimoroning asl ma’no maqsadini yanada chuqurroq tushunish mumkin.

Oksimorondan foydalanib muallif murakkab obrazlar va g’oyalarni tiniqroq ifodalashi mumkin. Masalan, *tartibli betartiblik* iborasi orqali muayyan vaziyatdagi tartibsiz holat ichidagi tartibni ko’rsatishi mumkin. Shuni alohida takidlash lozimki, ushbu fenomen yuzasidan bir qancha olimlar izlanish olib borib, o’z fikr mulohazalarini bildirib o’tishgan. Ulardan biri buyuk ingliz olimi Geoffrey Leech bo’lib, u tilning semantik stilistik bo’limlar yuzasidan olib borgan izlanishlari

¹ G.Komilova. Antonim va so’zlar vositasida qadriyat va bahoning ifodalaniishi.-O’zbekiston: Academic research in educational sciences jurnal, 2021.-155-159b.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

davomida oksimoron atamasini “*condensed paradox*” ya’ni o’zbek tilida *siqilgan paradoks* deb ataydi. U tilning semantik-struktural, sintaktik va fonetik jihatlarni ko‘rib chiqib, oksimoroning poetik dramatizm va e’tiborni tortish funksiyalarini yoritadi.

Xulosa qilib aytganda, antonimlarning oksimoronda namoyon bo‘lishi tilning nafaqat estetik, balki semantik imkoniyatlarini boyishiga keng yo‘l ochuvchi stilistik vosita sifatida e’tirof etiladi. O‘zaro qarama qarshi ma’noli so’zlarning uygunlashib, yangidan yangi obraz va chuqur mazmun yaratishi, avvalo nutqning obrazliligini oshiradi, kitobxonning hayolini yangi so‘qmoqlarga yetaklab unda kuchli hissiy aks sado uyg’otadi.

Bu kabi stilistik vositalardan unumli foydalana olish yozuvchining mahoratlari ekanidan dalolat beribgina qolmay, tilning boy ekanini ham isbotlovchi dalil bo’la oladi. Bu boradagi o‘qish va izlanishlar o’quvchining til sezgirligini, tahlil qila olish va fikrlayolish qobiliyatini shakillantirishda muhim rol o’ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI.

1. Leech G. N. A Linguistic Guide to English Poetry. – London: Longman, 1969.
2. Leech. G. N. Language in Literature: Style and Foregrounding. - Harlow: Pearson Longman, 2008.
5. Komilova G. Antonim va so‘zlar vositasida qadriyat va bahoning ifodalanishi. – O’zbekiston: Academic research in educational sciences jurnal, 2021.